

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASHDA PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURINING O'RNI

Ne'matova Flora Baxtiyor qizi

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholashda PIRLS xalqaro baholash dasturining o'rni, uning imkoniyatlari va o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi.

Tayanch so'zlar: PIRLS, xalqaro baholash dasturlari, ta'lim sifati, hayotiy ko'nikmalar.

THE ROLE OF THE PIRLS INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM IN EVALUATION OF READING LITERACY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Nematova Flora Bakhtiyor qizi

Independent researcher at Bukhara State University

Annotation: This article discusses the role of the PIRLS International Assessment Program in assessing the reading literacy of primary school students, its opportunities and specifics.

Keywords: PIRLS, international assessment programs, quality of education, life skills.

Bugungi kunda dunyo hamjamiyati ta'lim sifati samaradorligini oshirish masalasini hal qilishga kirishgan bo'lib, bu o'rinda yetakchi g'arb davlatlari ta'lim tizimida muvaffaqiyatli natijalarni ko'rish mumkin. Ta'lim sifatining bosh ko'rsatkichi bu bilim oluvchining natijasidir. Bilim bevosita o'qish ko'nikmalariga bog'liq bo'lib, ta'lim jarayonda kitob o'qish va uni tushunish ko'nikma va malakalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu o'rinda rivojlangan davlatlarda bilim oluvchining, jumladan boshlang'ich sinflarda o'qish va o'qib tushunish malakalarini baholashning PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) tizimi 2001 yildan beri qo'llanib kelinmoqda. 2016-yilgi PIRLS xalqaro 4-sinf o'quvchilarining matnini o'qib tushunish malakalarini baholash sinovlariga dunyoning 50 mamlakati qatnashdi. Har bir davlat boshlang'ich darajada matnini tushunishdan tortib mukammal darajada tushunish borasida turli ko'rsatkichlarni ko'rsatdi. O'rtacha hisobda, Rossiya Federatsiyasi va Singapurlik 4-sinf o'quvchilari o'qish bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etishdi.

2030-yilga borib o'quvchilar bilimini baholash bo'yicha PISA xalqaro dasturi reytingida O'zbekistonning jahondagi yetakchi 30 ta mamlakat qatoridan joy egallashi maqsad qilib qo'yilgan. Loyiha ijrosini ta'minlash maqsadida bizning Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida 2019-2020 o'quv yilida matematika, tabiiy va boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari yuqori kurslari o'quv rejalari "Xalqaro baholash dasturlari" moduli tanlov fan sifatida kiritilgan. Shuningdek, barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlari o'quv rejasidagi o'qitish metodikasi fanlari mazmuniga "Xalqaro baholash dasturlari" modulining kiritilgani ham yangi tizimni o'rganish borasida amaliy ishlar qilinayotganini ko'rsatadi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study – xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) – bu dunyoning turli davlatlarida boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnini o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. PIRLS har besh yilda bir bora o'tkaziladi.

Ushbu tadqiqot dunyoning turli mamlakatlarida tahsil oluvchi boshlang'ich sinf (4-sinf) o'quvchilarini matnini o'qish va tushunish darajalarini taqqoslovchi, shuningdek, mamlakatlar milliy ta'lim tizimida o'qish savodxonligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni taqqoslashga ixtisoslashgan xalqaro baholash loyihasi hisoblanadi. Tadqiqot asosan o'quvchilarning dars vaqtidagi va maktabdan tashqari

vaqtdagi ikki turdagi: o'quvchilarda badiiy o'qish savodxonligi hamda axborotni o'zlashtirish va ulardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirishni baholaydi.

Bu dasturda O'zbekistonlik o'quvchilarning qatnashishidan maqsad, o'quvchilarimizda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish raqobatbardosh kadrlarni yaratish uchun mustahkam zamin yaratish hisoblanadi. Maktablarda o'qituvchilar 1-sinf dan boshlab o'quvchilarga matnni o'qish va tushunishga o'rgatib boradilar. Tadqiqot uchun tanlanadigan matnlar bayonning ravonligi va izchilligi, ularning realligi, faktlarni tahlil qilmay tavsiflanishi (ilmiy, amaliy va boshqa matnlar) va to'qimaligi; badiiyligi (badiiy publitsistik va boshqa matnlar) kabi xususiyatlari juda muhim deb topilgan. Boshlang'ich sinflarda badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:

1. Asar mazmunini tahlil qilish va to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish bir jarayonda boradi (asarning mazmunini tushuntirishga oid topshiriq o'qish malakalarini takomillashtirish topshirig'i ham hisoblanadi).

2. Asarning g'oyaviy asoslari va mavzusini, uning obrazlari, syujet chizig'i, kompozitsiyasi va tasviriy vositalarini tushuntirish o'quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga yaxshi xizmat qiladi, shuningdek, bog'lanishli nutqining o'sishi (lug'atining boyishi va faollashishi)ni ta'minlaydi.

3. Sinfda o'qishga o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

PIRLS tadqiqotida O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishi ta'lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakatning nufuzini mustahkamlash birga ta'lim tizimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqish, ta'lim olish va investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek:

- 4-sinf o'quvchilarimizning o'qish savodxonliklari qay darajada shakllanganligini bilish va taqqoslash;

- mamlakatimiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining boshqa mamlakatlardagi tengdoshlariga nisbatan matnni o'qish va tushunish darajalarini solishtirish;

- o'qish savodxonligini rivojlantirishga oid darslar maktablarda qanday tashkil etilganligi haqida ma'lumot olish;

Shuningdek, PIRLS tadqiqotida o'quvchilarning o'qish savodxonligiga qo'yilgan talablardan, ya'ni o'qish savodxonligining maqsadi va tushunish jarayonlaridan kelib chiqqan holda darslikdagi, sinfdan tashqari o'qish uchun foydalanilayotgan adabiyotlardagi matnlar yoki gazeta va jurnallarda keltirilgan ma'lumotlar asosida o'quvchilar uchun topshiriqlar tayyorlash va o'qish savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida so'zlagan nutqidan
2. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash" metodik qo'llanmasi 2019-y. T.